

FRAZEOLOGIZMLARDA SEMANTIK MUNOSABAT

(o'zbek tilidagi iboralar misolida)

Yasmina Qurbonova

Termiz davlat universiteti,

o'zbek filologiyasi fakulteti amaliy filologiya ta'lim yo'nalishi talabasi.

qurbonova.yasmina116@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15013695>

Annotatsiya. Tilshunoslikda frazeologik birliklar talqinida bo'lgan munosabat ushbu fan rivojlanishining chuqur ildizlariga borib taqaladi. Frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir. Leksikada bo'lgani kabi frazeologiyada ham lisoniy-semantik munosabat amal qiladi. Frazeologizmning semantik tuzilishi frazeologik ma'no (ma'nolar) va qo'shimcha ottenkalardan iborat bo'ladi. Mazkur maqolada frazeologizmga semantik munosabatning shakllanishi tadqiq etiladi va misollar bilan ilmiy asoslanadi.

Kalit So'zlar: Frazema, frazeologiyada semantik munosabat, frazeologik sinonimiya, antonimiya, omonimiya, paronimiya.

SEMANTIC RELATIONSHIP IN PHRASEOLOGISMS

Abstract. The attitude in the interpretation of phraseological units in linguistics goes back to the deep roots of the development of this science. The subject of study of phraseology is the nature and substantial properties of phraseology and the laws of their application in speech. In phraseology, as in lexicon, the linguistic-semantic relationship applies. The semantic structure of phraseologism consists of phrasing meaning (meanings) and additional meanings. This article examines the formation of semantic relations in phraseologism and provides a scientific basis with examples.

Keywords: Phrase, semantic relation in phrasology, phraseologic synonymy, antonymy, omonia, paronymy.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ

Аннотация. Отношение к толкованию фразеологических единиц в лингвистике восходит к глубоким корням развития этой науки. Предметом изучения фразеологии являются природа и содержательные свойства фразеологии и закономерности их применения в речи. Во фразеологии, как и в лексиконе, применяется лингво-семантическое отношение. Семантическая структура фразологизма состоит из формулировочных

значений (значений) и дополнительных значений. В данной статье рассматривается формирование семантических отношений во фразеологизме и приводится научная основа с примерами.

Ключевые Слова: Словосочетание, семантическое отношение во фразеологии, фразеологическая синонимия, антонимия, омония, паронимия.

Frazeologiya (gr. phrasis – ifoda va logos – ta’limot) atamasi ikki ma’noda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini o’rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmi majmui.

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turg’un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi. Frazeologiya leksikologiya bo’limining tarkibiy qismidir. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko’ra qo’shma leksema, so’z birikmasi va gapga o’xshaydi. Biroq ular ko’proq qo’shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi.

Frazeologik sinonimiya. Sinonimiya - ma’no asosida belgilanadigan hodisa. O’TILda sinonimiya quyidagicha ta’riflanadi: “til birliklarining ma’no jihatidan yaqinlik, ma’nodoshlik hodisasi”. Ma’nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham mavjud. Frazeologizmning ma’nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko’ra farqlanadi: (*yaxshi ko’rmoq*) – (*ko’ngil bermoq*), (*yer bilan yakson qilmoq*) – (*kulini ko’kka sovurmoq*) , (*ipidan ignasigacha*) - (*miridan sirigacha*) , (*qilidan quyrug’igacha*) kabi iboralarda “butun tafsiloti bilan” atash semasi umumiy. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo’yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi. Frazeologik sinonimiya masalasining o’zbek tilshunosligida o’rganilishi tarixi prof. SH. Rahmatullayevning “O’zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasida ham qisman o’z aksini topgan. Prof. SH. Rahmatullayev ta’kidlashicha: “frazeologik sinonimiya uchun umumiy va eng muhim mezon – bu semantik mezondir. Har bir sinonimik uyadagi frazeologik birliklar ob’yektiv borliqdagi bir xil tushunchalarni anglatishi kerak va shu bilan birgalikda, bir xil ma’noni anglatishi shart” Akademik N.M.Shanskiy frazeologik sinonimiya hodisasini quyidagicha ta’riflaydi: “ob’yektiv borliqdagi aynan bir xil predmetni anglatuvchi turli iboralar sinonimik frazeologizmlar deb ataladi”. I.A.Fedosofning fikricha, “yagona umumiy ma’noga ega bo’lib, bir-biridan semantik yoki uslubiy o’ttenkalariga ko’ra farqlanuvchi iboralarga frazeologik sinonimlar deyiladi”. Frazeologik sinonimlar bilan variantlar o’rtasida kam bo’lmagan umumiy tomonlar bor, shu sababdan ko’pincha ular chalkashtirilib yuboriladi.

Masalan, gapda kesim vazifasida kelib, topilishi qiyin, kamyoblik'ni ifoda etuvchi "anqoning urug'i", "anqoning tuxumi" iboralari o'zaro variantdosh, "anqoga shafe" iborasi ularga sinonim sanaladi yoki 'g'irt savodsiz bo'lmoq, hech narsani bilmaslik' ifodalovchi "alifni kaltak deyolmaslik", "alifni tayoq deyolmaslik", "alifni tayoq demoq" iboralari o'zaro variantdosh, "ichini yorsa, alif chiqmaydi" shakli sinonimlik kasb etadi. SH. Raxmattullayev fikricha, "agar asosida boshqa-boshqa obraz yotishini barcha sinonimlar uchun umumiy belgi darajasiga ko'tarsak, bir necha sinonimiya uyasidan voz kechgan bo'lamiz". Masalan, semantik maydon kategoriyasi nuqtai nazaridan tezarusli ko'rinishda quyidagi sinonimiya uyalarini ko'rishimiz mumkin:

NOMUS: yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik, yerga kirib ketmoq, yerga qaramoq, bo'yni yor bermadi, boshini bukmoq, boshini xam qilmoq, beti chidamadi, qaysi yuz bilan, yuzi shuvut bo'lmoq, yetti nomisni yerga bukmoq;

MIQDOR: yer bilan osmoncha, bir shingil, bir chimdim, bir og'iz, ko'z ilg'amas, ikki og'iz, boshini yeb, dayodan bir tomchi, ko'z ilg'amaydi;

QO'RQUV: vahima bosdi, vahimaga tushmoq, dami ichiga tushub ketmoq, yuragi dov bermaslik, do'q urmoq, jonini kaftiga olib, jonini hovuchlab, jon-poni chiqib ketmoq, joni hiqildog'iga kelmoq, jon holatda, kayfi uchdi, labiga uchuh toshmoq, ko'zining ola-kulasi chiqib ketmoq, ko'ngliga g'ulg'ula tushmoq, nafasi ichiga tushub ketmoq, chumchuq pir etmoq, yuragi "shir" etmoq.

Sinonimik qatorda anchayin keng leksik ma'no va uslubiy jihatdan neytral tabiatli dominant kateroriyasi farqlanadi. *Jon bermoq, joni chiqmoq, dunyodan o'tmoq, joni uzilmoq, kuni tugamoq, ko'zini yummoq* sinonimik qatorining semantik dominanti 'o'lmoq' fe'li bo'la oladi. *Aql-u hushuni yo'qotmoq, tomi ketmoq, esi og'moq* sinonimik qatorida aqldan ozmoq frazemasi dominantlik maqomini namoyon etadi. *Bir tomondan tegirmonga tushsa butun chiqmoq, qilni qirq yormoq, ikkinchi tomondan yulduzni benarvon uradigan, ko'pni ko'rgan* semantik nuqtai nazardan muvofiqlik kasb etsa-da, birinchi qism fe'llik, ikkinchi qism substantivlik holatini ifodalaydi.

Shaklan har xil iboralarning bir-biriga yaqin ma'nolarni anglatib kelishi sinonim iboralarni hosil qiladi: *kayfi buzuq – ta'bi tirriq; toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq.*

Lugʻaviy birlik sifatida iboralar soʻzlar bilan ham sinonimik munosabatda boʻladi: *tomdan tarasha tushganday–kutilmaganda; ogʻzi qulogʻida – xursand, taʼbi xira – xafa, joni chiqmo – gʻazablanmoq, qoʻling oʻrgilsin– ajoyib*

Frazeologik antonimiya. Frazeologik antonimiya til birliklari orasida semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri boʻlib, iboralar ham soʻzlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan, iboralar, lugʻaviy maʼnosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, polisemiya bir iboraning maʼnolarini oʻzaro farqlashga yordam beradi, uchinchi, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi. Zid maʼnoli antonimlar bir-biriga teskari tushunchani ifodalaydi. Misollar: *(koʻngli joyiga tushdi) – (yuragiga gʻulgʻula tushdi), (qoni qaynadi) – (ogʻzi qulogʻiga yetdi)*. Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa soʻzlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson: *savol bermoq* v a *javob qaytarmoq; yerga urmoq* v a *koʻkka koʻtarmoq* kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki soʻz-komponentlar, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi soʻz komponentlar oʻzaro antonim. Quyidagi antonimik iboralar tarkibida qatnashgan birinchi leksik komponentlar – ayni bir soʻzning oʻzi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim soʻzlar: *yuragi keng* v a *yuragi tor*. Boshqa bir misol: *koʻngli joyiga tushdi* v a *yuragiga gʻulgʻula tushdi* antonim iboralar tarkibidagi leksik komponentlarning uchinchi ayni bir soʻz, birinchi oʻzaro sinonim, ikkinchi oʻzaro maʼno munosabati hosil qilmaydi. Koʻrinadiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim soʻz komponentlar bu iboralar, lugʻaviy maʼnosini oʻzaro antonim boʻlishida muhim rol oʻynaydi; ammo barcha antonim iboralar tarkibida antonim soʻz-komponentlar qatnashmaydi.

Antonimiya iboradan yaxlitligicha anglashiladigan lugʻaviy maʼno asosida belgilanadi.

Antonimik munosabat polisemantik iboralar har bir maʼnoga nisbatan alohida belgilanadi. Polisemantik iboraning bir maʼnosiga antonim bor boʻlishi, boshqa bir maʼnosiga esa yoʻq boʻlishi mumkin. Masalan, *savol bermoq* monosemantik iborasiga besh maʼnoli javob bermoq iborasining (1. kim nimaga yoki kimga. Javob qilmoq, 2. kim nimaga nima bilan. Javoban ish tutmoq, 3. nima nimaga. Qondirmoq, 4. Javobgarlikni oʻz ustiga olmoq) birinchi maʼnosi antonim.

Antonim iboralar: *koʻkka koʻtarmoq – yerga urmoq, yuzi yorugʻ – yuzi shuvut, koʻngli joyiga tushmoq – yuragiga gʻulgʻula tushmoq*.

Frazeologik birikma va gaplar koʻpincha bir soʻz yoki soʻz birikmasiga teng boʻladi.

Masalan: *qoʻli uzun – olgʻir, oʻpkasi yoʻq – shoshilgan, tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi – ruhi tushdi* va boshqalar.

Frazeologik omonimiya. Ma'lumki, til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi – omonimiya – frazeologik birliklarda ham uchraydi. Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo'lishi mumkin. Bir xil shaklda tuzilgan, ammo boshqa-boshqa mazmunni ifodalaydigan iboralar omonim iboralardir.

Boshiga ko'tarmoq I (shovqin solmoq): Uyni *boshiga ko'targan* bolalar tinchib qolishdi;

Boshiga ko'tarmoq II (e'zozlamoq). Har doim sizni *boshiga ko'taradi*.

Og'ziga olmoq I (ichmoq). Ilgari bir qatra *og'ziga olmas* edi.

Og'ziga olmoq II (gapirmoq). Ammo hech kim meni qaytarishni *og'ziga olmas* edi.

Ko'z yummoq I (vafot etmoq). Kasallik tufayli bu dunyodan erta *ko'z yumdi*.

Ko'z yummoq II (voz kechmoq). Barchasiga *ko'z yumdi*-da boshqa shaharga ketdi.

Bosh ko'tarmoq (o'smoq). Quyosh nuriga intilib, maysalar *bosh ko'tardi*.

Bosh ko'tarmoq II (isyon qilmoq). Uning qalbida allaqanday tuyg'ular *bosh ko'tardi*.

Frazeologik omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe bo'ladi: "*urmoqchi bo'lmoq*" ma'nosidagi *qo'l ko'tarmoq I* va "*tarafdorligini*,

xayrixoxligini bildirmoq" semasini anglatuvchi *qo'l ko'tarmoq II* kabi.

Odatda bir variantli iboraga ko'p variantli iboraning bir varianti shaklan teng kelib qoladi: "*gapirishga imkon berildi*" ma'nosida

qo'llanuvchi gap tegdi I va "*tanbeh eshitmoq*" ma'nosida *qo'llanuvchi gap tegdi II* kabi.

Shaklan teng kelish ko'p variantli ikki iboraning ba'zi variantlari orasida ham sodir bo'ladi: *gap(i)da turmoq I* (variantlari: *so'z(i)da turmoq II*; *lafz(i)da turmoq*) va *gapida turmoq II* (varianti: *so'zida qattiq turmoq*) kabi. Keyingi ikki tur omonimiya asli omoforma hodisasiga teng.

Frazeologik paronimiya. Iboralar orasida, shaklan teng kelishdan tashqari, shakily yaqinlik hodisasi ham bor. Shu asosda frazeologik paronimlar va frazeologik paraforalar haqida gapirish mumkin. Ba'zi iboralar o'zaro leksik tarkibdagi bir so'z komponenti bilangina farq qiladi, shu farqli so'z komponentlar ham bir-biriga o'xshash bo'ladi. Ana shunday shakily yaqinlikga ega ikki iboralarga frazeologik paronimlar deyiladi. Masalan, *yetti uxlab tush(i)ga kirmaslik* va *yetti uxlab tush(i)da ko'rmaslik*; *yurag(i) tars yorilib keta yozdi* va *yurag(i) qoq yorila yozdi* kabi. Ikki ibora leksik tarkibiy jihatdan aynan bo'lib, grammatik tarkibi jihatdan farqlanib turishi mumkin. Bunday iboralarga frazeologik paraforalar deyiladi. Masalan, *joni kirdi* – *jonini kirgizmoq* iborasidan *jon kirdi* – *jon kirgizmoq* iborasi grammatik tarkibida egalik affiksi yo'qligi bilangina farq qiladi; *pay(i)ga tushmoq* iborasidan *pay(i)dan tushmoq*

iborasi ot komponentining boshqa kelishikda kelishi bilan farq qiladi. Demak, ikki iboraning leksik tarkibi bir xil, ammo tuslanish va turlanish hodisalari bilan farqlanuvchi iboralar – paraforalardir.

Xulosa.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni anglashimiz mumkinki, frazeologizmda uslubiy bo'yoqdorlik va rang baranglikdan tashqari ma'lum bir lisoniy-semantik munosabat amal qiladi. Shunday qilib, frazeologiyaning alohida fan sifatida tan olinishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsada, hozirda frazeologiya o'zining ichki tuzilishi-yu, tadqiqot masalalariga ega bo'lgan alohida tilshunoslik bo'limi sifatida shakllanib bo'ldi. Frazeologizmlarning turli tillardagi qiyosiy tahlili, zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari bo'yicha frazeologik birliklarni tillar kesimida ko'rib chiqish, ularni tashkil etuvchi komponentlariga ko'ra semantik, semantik-stilistik xossalarini aniqlash va yoritish masalalari aynan shunday, o'z yechimini topmagan muammolar qatorida turibdi.

REFERENCES

1. R.Sayfullayeva, B.Mingliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. –T “Fan va texnologiya” 2009.
2. Nurmammedov Yusuf . Frazeologiyaning dolzarb masalalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand “SamDCHTI” nashryoti 2022.
3. SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov , Z.Xolmonova , I.O'razova, K.Rixsiyeva . O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi 2022.